

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIYA BILAN BOG'LIQLIGI

СВЯЗЬ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЕЙ

RELATIONSHIP OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH LINGUOCULTUROLOGY

Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna¹¹Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna

– Farg'ona davlat universiteti Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi tayanch doktoranti (PhD),

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologik birliklar lingvomadaniyat bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Lingvomadaniyat tushunchasiga izoh berilib, kontseptsiyalar talqinidagi bayoni keltirildi. Lingvomadaniyatning maqsad va vazifalari, shuningdek, yo'nalishlari keltirildi. Til madaniyati frazeologik birlik obrazida namoyon bo'lishi hamda frazeologik birliklarni madaniy izohlashda, uning obrazi, madaniyatning ma'lum bir qatlamlarida, ya'ni mifologik, arxetipik, folklor, diniy, badiiy hamda ma'lum bir madaniyat kodi bilan bog'liqligi yoritildi. Lingvokulturologiya shaxsning so'z va frazeologik birliklarda namoyon bo'lib, millatning ma'lum bir stereotipini belgilaydi.

Аннотация

В данной статье была проанализирована связь фразеологизмов с языковой культурой. Было разъяснено понятие языковой культуры и дано объяснение толкования понятий. Были представлены цели и задачи лингвокультуры, а также направления. Объяснено проявление языковой культуры в образе фразеологизма и культурная интерпретация фразеологизмов, его образ в определенных пластах культуры, т.е. мифологическом, архетипическом, фольклорном, религиозном, художественном и его связь с конкретным культурным кодом. Лингвокультурология проявляется в словесных и фразеологических единицах личности и определяет определенный стереотип нации.

Abstract

In this article, the connection of phraseological units with linguistic culture was analyzed. The concept of linguistic culture was explained and the explanation of the interpretation of the concepts was given. The aims and objectives of linguistic culture, as well as directions, were presented. The manifestation of language culture in the image of a phraseological unit and cultural interpretation of phraseological units, its image in certain layers of culture, i.e. mythological, archetypal, folklore, religious, artistic and its connection with a specific cultural code, were explained. Linguoculturology is manifested in word and phraseological units of the person and defines a certain stereotype of the nation.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, madaniyat, til, lingvokulturologiya, maktab, ma'nolar, so'z, madaniy.

Ключевые слова: фразеологизмы, культура, язык, лингвокультурология, школа, значения, слово, культурология.

Key words: phraseological units, culture, language, linguoculturology, school, meanings, word, cultural.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, frazeologik birliklarida mavjud bo'lgan madaniyatning milliy o'ziga xosligini ko'rsatish istagi bilan belgilanadi. Zamonaviy lingvokulturologiyada olimlarning frazeologik birliklar tarkibidagi madaniy ma'noni, uning frazeologik birliklar semantikasining boshqa komponentlari bilan o'zaro bog'liqligini, frazeologik birliklarning tasvirlarini madaniy ma'nolarning asosiy tashuvchisi va asosiy motivatorlari sifatida ko'rsatishga intilishi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatida madaniyat boshqa bir tushunchaga ega bo'lib, uning u yoki bu ko'rinishini tushunish uchun asos yaratgan: inson faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos usuli, jamiyatning tarixan belgilangan rivojlanish darajasi, har qanday madaniyatning rivojlanish darajasi, faoliyat, muayyan tarixiy davrlar, xalqlar va millatlarga xos xususiyat (masalan, qadimgi dunyo madaniyati, o'rta asrlar madaniyati, Qadimgi Yunoniston madaniyati, Uyg'onish davri madaniyati va boshqalar). Madaniyat insonning har qanday ijtimoiy faoliyati sifatida juda keng tushunilgan. Madaniyat bu insoniyatning borliq va ongning barcha sohalaridagi ijtimoiy progressiv ijodiy faoliyati bo'lib, u voqelikni ob'yektivlashtirish (qadriyatlar, me'yorlar, belgilar tizimlari va boshqalarni yaratish) va dialektik birligidan iboratdir. Madaniy tilshunoslik til va madaniyatni bir butunga birlashtiradi. U birinchi navbatda, so'z va frazeologik birliklarda namoyon bo'ladigan madaniyat mazmunini o'rganuvchi fandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvokulturologiyaning kelib chiqishi o'tmish bilan bog'liqdir. Uning rivojlanishiga V.N.Teliya, M.L.Kovshova, Yu.S.Stepanov, N.F.Alefirenko, V.V.Vorobyev, V.A.Maslova va boshqalar o'zlarining

salmoqli hissalarini qo'shganlar [5]. Lingvokulturologiya moddiy va ma'naviy madaniyatning tilning so'z va frazeologik birliklarda gavdalanish jarayonlari va natijalarini o'rganadi. U bilimning boshqa sohalari, eng avvalo, etnolingvistika bilan murakkab munosabatda bo'ladi. Umuman olganda, lingvokulturologiya ilmiy fan sifatida xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati tilda qanday idrok etilishi va aks etishini o'rganadi.

Inson dunyoni idrok etar yekan, o'z idrokini lingvistik shakllarda mustahkamlaydi. Insonning tili hamisha u bilandir. Shuning uchun, inson odatda dunyoning o'zi bilan emas, balki dunyo haqidagi g'oyalar, kognitiv tasvirlar va modellar bilan shug'ullanadi. Inson ongida olamni idrok etish jarayonida idrok etilayotgan predmetlarning nafaqat tasvirlari va xossalari shakllanadi, balki tasvirning asosiy belgilari alohida ajratiladi va tegishli toifalarga kiritiladi. Idrok etilayotgan predmetlarning xususiyatlarini umumlashtirish jarayoni murakkabdir.

Frazeologik birliklarning shakllanish jarayonida alohida so'zlardan sezilarli darajada farqlanadi. Agar so'z idrok etilayotgan obyektning tasviri bo'lsa, frazeologik birlik butun vaziyatni, ya'ni hodisani aks ettiradi. Shuningdek, vaziyatni frazeologik birliklarda aks ettirilgan voqelikning ajralmas segmentlari sifatida tushunish ham mumkin.

Inson ma'lum bir madaniy jamiyatda yashagani uchun dunyoni bilishda madaniyatdan voz kecha olmaydi. Darhaqiqat, dunyoni bilish sohasidagi ko'plab olimlar dunyo nafaqat tilda, balki u ma'lum bir xalq madaniyatida ham majburiy ravishda ifodalanishidir, deb bilishadi.

XIX asr boshlida nemis olimlari aka-uka Grimmlar til, madaniyat, etnik kelib chiqishi o'rtasidagi munosabatlar muammosini hal qilishga harakat qilishdi. Ularning g'oyalarini F.I. Buslayev, A.N. Afanasyev, A.A. Potebnya asarlarida ham uchratish mumkin [5].

Falsafiy tilshunoslikning asoschisi hisoblangan taniqli nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt ilmiy bilishning asosiy tamoyili tilni o'rganish inson tafakkuri, uning madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi lozimligini yozgan edi. V. Fon Gumboldt tilni xalq ruhi, uning energiya ifodasi deb hisoblagan. Olim tilning ichki va tashqi shaklini ajratdi: ichki shakl tilni tashkil etish tamoyili, tashqi shakl bu tamoyilni ifodalashga xizmat qiladi. Har bir tilning shakli dunyoning o'ziga xos tasvirini chizadi.

Amerikalik tilshunos olimlar Ye. Sapir va B. Uorf ta'limotlarida eng muhimi, til tafakkur strukturasi va dunyoni bilish usulini belgilaydi. Har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda ajratadi va ifodalaydi [5].

Madaniyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini aynan til orqali yaratilishi sababli lingvokulturologiya vujudga keldi.

Lingvokulturologiya til va madaniyatni birlashtirish, balki chegaralash orqali ham shakllanadi. Bu fanning o'rganish predmeti xalq madaniyati bo'lib, u tilda o'z ifodasini topgan va mustahkamlangan. Lingvokulturologiyada asosiy masala so'zlar va frazeologik birliklar tarkibidagi madaniy ma'nolarni aniq talqin qilishga xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarni madaniy izohlashda, uning obrazi, madaniyatning ma'lum bir qatlami (mifologik, arxetipik, folklor, diniy, badiiy va h.k.) hamda ma'lum bir madaniyat kodi (antropik, somatik yoki tana, tabiiy, fazoviy, vaqt, zoomorfik va boshqalar) bilan bog'liqdir. Bu madaniyatning eng qadimiy qatlamlarini, xususan, dunyoni tushunishning mifologik va arxetipik shakllarini, shuningdek, madaniyatning ko'plab kodlarini, xususan, tabiiy obyektlarni, vaqt va makonni, tirik mavjudotlarni, o'z hayotidagi shaxsni ochib berishga imkon beradi.

Lingvokulturologiya madaniy belgilarning shakllanish jarayoniga katta e'tibor beradi. V.N. Teliya [5] va uning ko'plab izdoshlari madaniyatning ramziyligini tashkil etuvchi, birinchi navbatda, ramzlar, standartlar, stereotiplar, marosimlar, urf-odatlar va boshqalarni o'z ichiga olgan turli xil madaniy kodlarni o'rganadilar va tavsiflaydilar. Boshqa lingvokulturologlar (V.G. Kostomarov, Ye.M. Vereshagin, N.D. Burvikova, V.V. Vorobyev va boshqalar) lingvokultura haqida belgilarning qatorlarga bo'linishi mumkin bo'lgan guruhlanishi haqida gapiradilar, bu esa madaniyatning timsoli naqshlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Lingvokulturologiyaning fundamental nazariy asosini leksik va frazeologik ma'nolarning tuzilishi, so'zning valentlik xususiyatlari, birliklarning ijtimoiy belgilanishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyada qo'llaniladigan asosiy tushuncha bilimdir. Biroq, bu yerda "bilim" va "madaniy bilim" ni farqlash kerak. N.F. Alefirenkoning fikricha, insoniyat

TILSHUNOSLIK

sivilizatsiyasining eng qadimiy bosqichida bilim tananing atrof-muhit bilan maqsadli o'zaro ta'siri bo'lgan, keyin yesa dunyo rivojlanishining keyingi bosqichlarida "bilim qiymat-semantik maqomga ega bo'lgan. Ushbu turdagi bilimlar endi ma'lum bir etnik madaniyatning qiymat-semantik yo'riqnomalari bilan belgilanadigan semiotik tizimlar tomonidan obyektivlashtiriladi [1].

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiyada bir nechta yo'nalishlar mavjud:

1. Faqat bitta madaniyat, bitta etnik guruh lingvokulturologiyasi, masalan, rus, nemis va boshqalar. Bunda lingvokulturologiyani o'rganish bir til doirasida olib boriladi, lingvokulturologiyaning metodologik apparati ishlab chiqiladi, madaniy matnlarni ilmiy tushunish asosida madaniy ma'nolar mazmuni oydinlashtiriladi, lingvokulturologiya fanining uslubiy apparati ishlab chiqiladi. Ularni tilda ifodalash, frazeologik birliklarning obrazli-assotsiativ rejasining aloqa mexanizmlari, ularning madaniy mazmuni kabilarga asoslanadi;

2. Muayyan tarixiy davrdagi muayyan jamiyat madaniyatini o'rganuvchi diaxronik-qiyosiy lingvokulturologiya, masalan, Sovet va hozirgi rus til madaniyati; Qadimgi, o'rta asrlar va yangi davrlardagi nemis til madaniyati;

3. Xuddi shu tarixiy davrda (masalan, Sovet Ittifoqi davrida yoki hozirgi vaqtda) turli til madaniyatlarini (masalan, o'zbek va nemis) taqqoslash;

4. Lingvomadaniy lug'atlar bilan shug'ullanish.

XX asr oxirida Moskvada to'rtta lingvokulturologiya maktablari tashkil etildi [3].

1. Yu.S.Stepanova madaniytilshunoslik maktabi. Bu maktabning maqsadi turli davrlardagi matnlar yordamida madaniyatni diaxronik jihatdan tasvirlashdani borat bo'lgan.

2. N.D.Arutyunova maktabi. Bu maktab turli davrlar va xalqlar madaniyatining universal atamalarini o'rganadi.

3. Rossiya Xalqlar do'stligi universitetida yaratilgan Madaniy tilshunoslik maktabi. Asoschilari: V.V.Vorobyev, V.M.Shaklein, Ye.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov boshqalardir.

4. V.N.Teliya maktabi. Bu maktab Moskva shahrida joylashgan bo'lib, frazeologik birliklarni lingvistik va madaniy tahlil qilish maktabi hisoblanadi. V.N.Teliya va uning izdoshlari lingvokulturologiyada asosiy narsa ona tilida so'zlashuvchilarning frazeologik birlik qiyofasidagi aksini tavsiflash deb hisoblashadi hamda til vamaadaniyat sub'ekti bevosita madaniy semantikaga ega ekanligini aytishadi. Bu maktab kontseptsiyasi A.Vejbitskayaning pozitsiyasiga yaqin bo'lib, u tilning so'zlari va frazeologik birliklarini anglash, so'zlovchining nutqiy-aktiv psixik holatlariga taqlid qilishni ko'rsatishdir.

NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Lingvokulturologiya jonli milliy tilda mujassamlangan va lingvistik jarayonlarda namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganuvchi gumanitar fandır. U til qanday qilib madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va uzatish vositasiga aylanishini belgilaydi va tushuntiradi. Lingvokulturologiyaning maqsadi tildagi so'z va birliklarni gavdalanishi, saqlashi hamda uzatilishini o'rganishdir. Lingvokulturologiya mustaqil fan sifatida o'z vazifalariga ega. U lingvistik semantikada madaniy ma'lumotlarni saqlash usullari va vositalarini o'rnatish, til ma'lumotlari asosida olamning milliy manzarasi modelini yaratish, nazariy bilimlarni yaratish va asoslash kabi vazifalardir.

Teliya va uning izdoshlari til birliklarining madaniy ma'nolarini o'rganishning o'ziga xos usullarini taklif qilishadi. Til madaniyati frazeologik birlik obrazida joylashgan, degan fikrlarini uchratamiz.

Shuni tan olish kerakki, bir millat vakillarining hayoti va xatti-harakatlarida ko'p narsa madaniy omillar bilan izohlanadi. Masalan, o'zbek farzandiga namuna sifatida buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoi, Al Beruniy, Al Farg'oniy kabi allomalarimizni majburiy eslatib turish, uning Vatanga, oilasiga bo'lgan muhabbati va hurmati rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Milliy-madaniy o'ziga xosligini aks ettiruvchi frazeologik birliklarni lingvokulturologiya bilan bog'liqligini quydagi harbiy frazeologik birliklarda namoyon bo'lishini uchratamiz. Ular texnika va harbiy ishlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan to'plam iboralarni o'z ichiga oladi. Ushbu frazeologik birliklarning tarkibiy elementlari sovuq qurol va o'qotar qurollarning har xil turlari va tarkibiy qismlarining nomlari bilan izohlanadi.

- *Wer das Schwert nimmt, soll durch das Schwert umkommen* (qilich olganlar qilichdan o'ladi);

- *Das Schwert in die Scheidestecken* (urishni to'xtatmoq);

- *Einen Pfeil umsonst verschießen* (nishonga tegmaslik);
- *die Waffen in die Hand geben=seinem Gagner selbst Waffen liefern* (dushmanni o'z quoli bilan mag'lub qilmoq yoki urmoq);
- *In Waffen sein* – qurollanmoq;
- *Wie eine Bombe einschlagen* – bombadek portlamoq
- *Die Bombe kommt zum Platzen* – portlamoq [2].

Til bir vaqtning o'zida madaniyatga nisbatan avtonomdir, ya'ni madaniyat bilan taqqoslanganda teng hodisa sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Til evolyutsiyasi mexanizmlarini o'rganish tildan tashqarida bo'lgan omillarni aniqlashni talab qiladi. Shu munosabat bilan til lug'atning alohida qatlamiga asosan dialektal xarakterga ega bo'lib, milliy madaniyat bilan o'zaro bog'liqdir.

Lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi tilni madaniyat va tilning og'zaki kodi sifatida lingvistik yo'nalish doirasida madaniyat yaratuvchisi sifatida o'rganish, tadqiqotchini ma'naviy madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va amaliy san'ati, shuningdek turli yozishmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqasini tahlilga yo'naltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi vaqtda lingvokulturologiya faol rivojlanmoqda. Lingvokulturologiya shaxsning so'z va frazeologik birliklarda namoyon bo'lib, millatning ma'lum bir stereotipini ham belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Alefirenko N.F., So'zning she'riy energiyasi. Til, ong va madaniyat sinergetikasi / M.: Akademik, 2002. - 10-11, 394 b. [Алефиренко Н.Ф., Поэтическая энергия слова. Синергетика языка, сознания и культуры/ М.: Академика, 2002. – 10-11, 394 с.]
2. Binovich L.E, Grishin N.N., Nemischa-ruscha frazeologik lug'at, M.: 1975. 95, 100, 168, 350, 396, 397, 420, 496, 501, 538 b. [Бинович Л.Э., Гришин Н.Н., Немецко-русский фразеологический словарь, М.: 1975. 95, 100, 168, 350, 396, 397, 420, 496, 501, 538 с.]
3. Maslova, V. A., Lingvokulturologiya: darslik. oliy ta'lim muassasalari talabarlari uchun darslik. M.: Akademiya, 2001.-3,30 b. [Маслова, В. А., Лингвокультурология : учеб. пособие для студентов высш. учеб. Заведений. М. : Академия, 2001. – 3, 30 с.]
4. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu., Rus tilining izohli lug'ati: 80 000 so'z va frazeologik iboralar/ Rossiya Fanlar akademiyasi. - 4-nashr, qo'shimcha. - M.: ООО «ИТИ Технологии», 2005. – 460, 944, b. [Ojegov S.I., Shvedova N.Yu., Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений/ Российская академия наук. - 4-е изд., доп. - М.: ООО «ИТИ Технологии», 2005. – 460, 944с.]
5. Ха Нгуен Тхан, Rus va Vetnam tillarining frazeologik birliklarida milliy madaniyatning aks etishi: diss ... nomzod. filol. Fanlar. - M., 2016. - 13-22 b. [Ха Нгуен Тхан, Отражение национальной культуры во фразеологизмах русского и вьетнамского языков: дисс...кандид. филол. наук. – М., 2016. – 13-22 с.]